



**O`ZBEKISTONDA SOVET DAVRIDA SOG`LIQNI SAQLASH TIZIMI,  
PROFILAKTIK TIBBIYOT VA OMMAVIY SOG`LOMLASHTIRISH  
SIYOSATI**

*Muxammadiyeva Ismigul Jamshidovna*

*Toshkent tibbiyat akademiyasi 1-kurs talabasi*

*Iskandarov Sherzod Abdug`aniyevich*

*Toshkent tibbiyat akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasi tarix fanlari bo`yicha*

*falsafa doktori (PhD) dotsent*

**Annotatsiya:** *Sog`liqni saqlash, tibbiyoti tarixi jahon madaniyati tarixining ajralmas qismidir. Har qanday davlat siyosatining asosiy yo`nalishlaridan biri jamiyat hayotining muhim sohalari – sog`liqni saqlash va tibbiyotni rivojlantirishdir. Bu muammoni tahlil qilish kompleks yondashuvni talab qiladi, chunki aholi salomatligini muhofaza qilish mehnat unumdarligining o`sishiga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy rivojlanishiga ta`sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. O`zbekistonda Sovet davrida tibbiyat fanining rivojlanishi bir qator ilmiy, tashkiliy va amaliy tadqiqotlarning samarasi sifatida shakllandi. Bu davrda tibbiyat sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilib, tibbiy ta`lim, ilmiy tadqiqotlar va sog`liqni saqlash tizimining asoslari mustahkamlandi.*

**Kalit so`zlar:** *Sog`liqni saqlash merosi, strategiyasi, ijtimoiy tibbiyot yondashuvi, tibbiy-profilaktik chora-tadbirlar, tibbiyot modeli, tibbiy rejalahtirish, tibbiyot va ideologiya.*

XIX asrning 60-yillarida O`rta Osiyo hududining ko`p qismi rus podshosining qo`sishinlari tomonidan bosib olindi. Qo`qon xonligi tugatildi. Uning o`rnida chor hukumatining Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Uning tarkibida harbiy-tibbiy boshqarma tashkil etildi. Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi



rasmiy jihatdan mustaqilliklarini saqlab qoldilar. Ammo, ular chor hukumatining ta'siriga tushib qolgan edilar. 1886-yilda Turkiston general-gubernatorligi "Rossiyaning Turkiston o'lkasi", deb e'lon qildi. O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng bu yerda muhim siyosiy, iqtisodiy va m'adaniy o'zgarishlar yuz berdi. Siyosiy jihatdan o'zbek xonliklari chor hukumatiga qaram bo'lib qoldilar. Iqtisodiy jihatdan bu yerda qisman jonlanish yuz berdi. Xususan, qishloq xo'jaligi (paxtachilik) rivojlana boshladi. Rus kapitalistlari o'zbek paxtasini arzon narxda sotib olib, tashib keta boshladilar. Shu munosabat bilan paxta maydonlari kengaytirildi. Yangi ekin maydonlari ochildi. Ammo, dehqonlarning ish sharoiti o'zgarmay qoldi. Dehqonchilikda ishlatiladigan texnika juda oddiy edi. Oddiy omoch va ketmondan boshqa hech qanday texnika yo'q edi. Hamma ish qo'l kuchi bilan bajarilardi. Bunday og'ir mehnat va o'lkaningina o'ziga xos jazirama sharoiti kishilarning tinkasini quritib, ular o'rtasida har xil kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lardi. Bundan tashqari o'lka sharoitiga xos kasalliklar (bezgak, leishmanioz, brutsellyoz, rishta singari kasalliklar ham tarqalgan edi. O'lkada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dastlabki ishslash korxonalari (paxta tozalash zavodlari, moy vasovun ishlab chiqaruvchi korxonalar) qurildi. Ammo bu korxonalarda ish sharoiti og'ir edi. Mehnatni muhofaza qilish chorralari amalga oshirilmas edi. Bu korxonalarda ishlovchi ishchilarga tibbiy yordam tashkil qilinmagandi. Ishchilar og'ir sharoitda 12-14 soatlab ishlardilar. Bu hoalt esa ishchilarning sog`lig`ining yomonlashuviga turili xil kasalliklar tarqalishiga sabab bo'ldi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra faqat 1893-yilning o'zidagina 200000 dan ortiq kishi bezgak kasalligi bilan og'rib, shulardan 40 ming kishi vafot etgan. Boshqa kasalliklardan ham ko'p kishi halok bo'lgan. O'lkada aholi sog`lig`ini saqlashga qaratilgan faoliyat olib boruvchi tashkilotlar ham yo'q edi, faqatgina rus ma'muriyatiga qarashli ayrim tibbiyot muassaslar bor edi. Keyinroq har bir Shahar va qishloqlarda harbiy gorizontlar tashkil etila boshlandi u yerda harbiy vrachlar bor edi , shuningdek harbiy gospitallar ham



tashkil etilgan edi. Ammo ular oddiy aholiga xizmat ko`rsatmas edi. Keyinroq fuqaroviylar tibbiy muassasalar ham paydo bo`la boshladi. Bular ham Rusiyadan ko`chirib olib kelingan fuqarolarga tibbiy yordam ko`rsatardilar. Rasmiy ma'lumotlarga ko`ra 1868-yilda Toshkentda 30 o`rinli harbiy lazaret ochilgan. U 1870-yilga kelib, 400 o`rinli harbiy gospitalga aylantirilgan. Samarqandda 15 o`rinli kasalxona ochilgan. 1873-yilda shunga o`xshash kasalxona Kattaqo`rg`on shahrida barpo etilgan. 1883-yilda Toshkentda ayollar shifoxonasi (ambulatoriyasi) ochilgan. Nihoyat, 1898-yilda Toshkentning Eski Shahar mavzeyida shahar aholisi uchun 20 o`rinli kasalxona ochiladi. So`ng bunday kasalxonalar Samarqand, Xiva va Buxoroda ham barpo etilgan edi. Ammo, bu kasalxonalar juda kichik (10-15 o`rinli) va yetarli darajada jihozlanmagan muassasalar edilar. 1874-yilda Toshkentda birinchi zamonaviy dorixona ochildi. U shahar hokimiyati qaramog`ida edi. So`ng xususiy dorixonalar ham paydo bo`la boshladi. 1913-yilga kelib ularning soni 33 taga yetdi. Bu kasalxona, ambulatoriya va dorixonalar mutlaqo yetarli bo`lmasalar ham, ularning o`lkada paydo bo`lishi tibbiyat olamida ijobiy hodisa edi. O`lkada zamonaviy shifoxona va dorixonalarning paydo bo`lishi mahalliy tabiblarning faoliyatiga ham o`z ijobiy ta'sirini ko`rsatdi. Masalan, ular kasallarni davolashda zamonaviy dorixonadan sotib olingan dorillardan ham foydalana boshladilar. O`zbekiston hududida uchraydigan kasalliklar rus soldatlari va Rusiyadan ko`chirib olib kelingan rus fuqarolari o`rtasida ham tarqala boshladi. Xususan, ular bezgak, rishta, jarohat va shularga o`xshash kasalliklar bilan og`riy boshladilar. Harbiy boshliqlar buni ko`rib, garnizonlarda xizmat qiluvchi vrachlarga bu kasalliklarni o`rganish va soldatlarni ulardan xoli qilishni buyurdilar. Vrachlar bu ishga kirishdilar va muhim natijalarga erishdilar. Masalan, Samarqand garnizonining vrachi K.M.Aframovich va Jizzax garnizonining vrachi T.K.Lopotovskiy rishta kasalligini tekshirib, bu kasallikni maxsus gjija (gelmint) paydo qilishini aniqladilar. Toshkent garnizonining vrachi P.F.Borovskiy yomon jarohat (Leishmanioz)ning



qo‘zg‘atuvchisini topdi. Rus olimi K.I.Skiyabin yangi shistosoma gjijasini aniqladi. Bu kashfiyotlar muhim amaliy ahamiyatga ega edi.

Ammo malakali mutaxassislar, tibbiy texnika va jihozlar, dori-darmonlar yetishmasdi. Bu yanada yangi epidemiya holatlari rivojlanishiga xavf tug‘dirardi. Ushbu yillarda aholining o‘lim darajasi 3 marta oshdi, tug‘ilish 2 martaga kamaydi. Mamlakatda o‘limga olib keluvchi kasalliklarga va epidemiyaga qarshi yordamni faqat, yaxshi tashkillashtirilgan sog‘lijni saqlash tizimi qutqara olishi mumkin edi. 1918-yilda xuddi shunaqa tizim faol shakllana boshladi. 1917-yil 26-oktyabrdan Davlat sog‘lijni saqlashni tuzish uchun tibbiy-sanitar bo‘lim tuzildi. 11-iyul 1918-yil Xalq komissariati Soveti “Sog‘lijni saqlash xalq komissariati muassasalarini to‘g‘risida” dekret imzolandi. Uning birinchi rahbari qilib G.N.Kaminskiy tayinlandi.

Yangi tibbiyotning eng muhim prinsipi bu davlat xarakteriga ega bo‘lish edi. Jamiyatning eng qashshoq qatlamalariga tibbiy xizmatlar uchun imtiyozlar kiritilgan, davolash profilaktika muassasalarining soni ko‘paytirilgan. Keyinchalik sanitariya-gigiyena nazorati bo‘yicha xizmatlar tashkillashtirilgan. Doimiy sanitarnazorat nafaqat korxonalarda, balki aholining shaxsiy hayotida ham o‘rin topgan. Xukumat tarafdan bu rejalarни amalga oshirishga katta mablag‘lar ajratilgan. Yaqin orada butun ittifoq bo‘yicha vabo, chechak, o‘lat kabi kasalliklar tugatilgan. Bunday chora tadbirlarning samarasi shunchalik yuqori bo‘lganki, ham tinchlik davrida, ham ikkinchi jahon urushi davrida epidemiylar ta’sodiflari ta’kidlanmagan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida kichik tibbiyot xodimlari tayyorlashda Qizil Yarim oy jamiyati tashkilotlari katta o‘rin tutdi. Jumladan, O‘zbekiston SSRda tashkilot tomonidan urush yillarida 7000 hamshira, 16700 sanitariya drujinachilar, 10 mingdan ortiq tibbiyot instruktori va sanitarkalar tayyorlandi. Evakuatsiya shifoxonalarida jamiyatning 230 hamshirasi, 2000 drujinachi ayollar ishlagan. Jamiyatning 17000 dan ortiq o‘qitilgan faollari ixtiyoriy ravishda yaradorlar bilan



O‘zbekiston gospitallarida va saralash stansiyalarida ishlashgan. Urushning boshida 2500 hamshira va drujinachi ayollar o‘z ixtiyori bilan frontga jo‘nab ketdi va front va armiya bo‘linmalarida fidokorona jang qildi, ularning ko‘plari hukumat mukofotlari bilan taqdirlandi. 1941-1945-yillar davomida o‘zbek tilida nashr etilgan front va frontorti gazetalarida bir qator o‘zbek tibbiyot xodimlarining nomlari mashhur bo‘lgan edi.

Xususan, harbiy vrach sifatida Stalingrad uchun bo‘lgan janglarda boshdan oxirigacha qatnashgan Xolmat Rahimov, sanitardan buxorolik Rahima Alimova, sanitariya instruktori katta serjant Xalil Jalilov, Mamasoli Jo‘rayev, Mirsayid Usmonov, kichik leytenant Isamuhammad Ernazarov, Sobirov, Serjant Samin Uzoqov, Safar Abduraimovlar singari jasur jangchilar qurol ko‘tarish bilan birga frontdagi yaradorlarni jang maydonlaridan olib chiqish, ularga birinchi tez tibbiy yordam berish ishida ko‘rsatgan jasoratlari uchun bir necha bor hukumat tomonidan orden va medallar bilan mukofotlanganlar.

Vaziyat muvozanatlashib fuqarolararo urush tugagandan keyin, xukumat tibbiy oliy ta’limga yangi oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor qarata boshladi. U paytda sog‘liqni saqlash tizimida amaliyot bilan tibbiy fanni birlashtirish lozim edi. Lekin o`sha paytlar tibbiyot rivojlanishi uchun qiyin davlar edi. Laboratoriya jihozlari ham yetishmas edi, mehnat uchun ham normal sharoit yaratilmagan edi. Bunga qaramay qator rus olimlari V.M.Bexterev, A.A.Kisel, N.I.Burdenko, E.N.Pavlovskiy, I.P.Pavlov bir yoqadan bosh chiqarib, ochlik va boshqa yo‘qchiliklarni chidab ishini davom etardilar. Davlat aholini sog‘liqni saqlash instituti tashkil topgan va uning tarkibiga 8 ta ilmiy institut kiritilgan. Ilmiy institutlar sanitar-gigiyena sharoitlari, tropik kasalliklar, mikrobiologiya va boshqa savollar ustida bosh qotirardilar. Butun Rossiya bo‘yicha 1918-1927-yil 40 dan ortiq ilmiy institutlar tashkil etilgan. 1930-yildan hamma tibbiy fakultetlar ajralib mustaqil tibbiy institutlarga aylangan, 1935-yilda ularning soni 55 taga borgan (tibbiy institutlar soni bilan birgalikda) (Toshkent va Samarqand tibbiyot



institutlari). Ularning tarkibida farmasevtika, pediatriya, stomatologiya fakul'tetlari bo'lgan va bu birinchi tibbiyot universitetlari asoslanishiga imkon tug'dirgan. Klinik kafedralar bo'yicha ordinatura va aspiranturalar tashkil etilgan.

1960-yilning boshlarida butun mamlakat bo'yicha katta kasalxonalar qurila boshlandi (300-600 va undan ko'p o'rinni), poliklinikalar soni oshdi, bolalar kasalxonalari va sanatoriylar tashkil qilindi, amaliyotga yangi vaksina va preparatlar kiritildi. Terapiya sohasida alohida mutaxassisliklar ajratila boshladi va rivojlandi. Jumladan (kardiologiya, pulmonologiya va boshqalar). Jarrohlik sohasi oldinga rivojlandi, mikrojarrohlik, transplantalogiya a'zo va to'qimalarni protezlash prinsiplari ishlab chiqildi. 1965-yil tirik donordan birinchi marta buyrakni ko'chirib o'tkazish muvaffaqiyatli o'tkazildi. Operasiyani Boris Vasil'evich Petrovskiy o'tkazdi. 1970-yil o'rtalarida ko'pgina diagnostik markazlar ochildi va jihozlandi, onalik va bolalikni muhofaza qilish ishlari mukammallashtirildi, onkologik va yurak qon tomir kasalliliklariga ko'p e'tibor qaratildi. 1980-yillarda kardiologiya, onkologiya, leykozlar, implantasiya va protezlash masalalarini faol o'rganish davom etdi. 1986-yilda birinchi marta yurakni ko'chirib o'tkazish operasiyasi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Operasiya muallifi Valeriy Ivanovich Shumakov edi. Bundan tashqari tez yordam tizimi faol rivojlandi, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi tuzildi "tez yordam" va "stasionar"lar shular jumlasidandir. 1919-yil Toshkentda Turkiston Davlat universiteti tashkil etildi va uning qoshida 2-iyulda tibbiyot fakul'tetini tuzishga qaror qilindi. Tibbiyot fakulteti dekani etib professor P.P.Sitkovskiy, dekan muovini etib — professor K.G.Xrumev tayinlandi. Ular ishni Moskva va Peterburgdan o'qituvchi kadrlari jalb qilish, jihozlar, o'quv qo'llanmalar va adabiyotlari to'plashdan boshlashdi. Bularidan tashqari ushbu jarayonda professorlar A.N.Kryukov, Bemadskiy, I.V.Davbidovskiy va boshqalar faol ishtirok etishdi. 1920-yil fevralida Moskvadan professor P.P.Sitkovskiy boshchiligida jihozlar va o'qituvchilar bilan birinchi eshelon yo'lga chiqdi va shu



yilning aprelida Toshkentga keldi. TDU to‘g‘risidagi dekret 1920-yil 7-sentyabrdan Toshkentda qabul qilindi. 5-may 1920-yil, №837 hukumat buyrug‘iga muvofiq sobiq kadet korpusida Poltoraskiy nomidagi 500 o‘rinli katta kasalxona barcha jihozlari bilan TDU tibbiy fakul’tetiga berilgan. Klinikalar 1921-yildan 1926-yilgacha bo‘lgan davrda qayta qurildi va o‘quv bazasiga moslashtirildi, 1922-yilgacha fakul’tetning xomashyo texnik bazasi bir muncha mustahkamlandi, buning uchun Turkiston respublikasi hukumati tomonidan 65000 so‘m oltin jihozlar va adabiyotlar sotib olish uchun ajratildi.

1930-yilda tibbiyot fakultetini Universitet tarkibidan ajratish va mustaqil institutlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. 1930-yilda O‘zbekiston tarixida birinchi marta Samaqandda birinchi mustaqil tibbiyot instituti ochildi. 1931-yilda Toshkent tibbiyot fakul’teti O‘rta Osiyo davlat universitetidan ajralib, Sog‘liqni saqlash Xalq komissariatiga tegishli mustaqil O‘rta Osiyo tibbiyot instituti tashkil qilindi. Intitutning birinchi direktori qilib tibbiyot fakul’tetining ijtimoiy gigiena kafedrasini 1924-yildan 1930-yilgacha boshqarayotgan tibbiyot fanlari doktori, professor G.P.Fyodorov tayinlandi. 1930-yil O‘rta Osiyo Davlat universiteti va negizida alohida fakultetlari Samarqanda Ozbek Davlat tibbiyot instituti, bir yil o‘tib esa Toshkentda O‘rta Osiyo tibbiyot instituti va 1937-yil Toshkent davlat farmatsevtika instituti va tashkil etish. 1935-yil O‘rta Osiyo tibbiyot instituti Toshkent Davlat Tibbiyot instituti deb nomlangan (ToshDavTI). Uning tarkibida quyidagi fakultetlar tashkil etilgan: davolash - profilaktik, sanitarno-profilaktik (keyinchalik sanitarno — gigienik), onalik va bolalikni muhofazalash (keyinchalik pediatriya) va stomatologiya, keyinchalik stomatologiya davolash fakul’teti tarkibida kurs qilingan. 1965-yil sentyabrida akademik K.A. Zufarov institut rektori qilib tayinlanadi va klinik bazalami fakul’tetlar prinsipi bo‘yicha qo‘llash taklif qilinadi. 1972-yildan shahaming Sobir Raximov tumanidan yangi institut kompleksi qurila boshladi va bu ikkinchi ToshDavTI bazasi bo‘ldi. Shu erdan xodimlar uchun turar joylar va talabalar uchun talabalar uyi qurildi. 1975-yil



ToshDavTI tarkibida ikkinchi davolash fakul'teti ochildi, birinchi kursga 1500 ta talaba qabul qilindi. 1990-yil respublika hukumati ToshDavTI ajratish hamda birinchi va ikkinchi institut qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bo‘lingandan keyin Birinchi Toshkent Tibbiyot instituti rektori qilib, ilgari pediatriya ITI tida ishlagan va boshqargan professor T.A.Daminov tayinlandi. Ulaming rahbarligida ikkita fakul'tet davolash va stomatologiya fakul'teti faoliyat olib bordi. Ikkinci Toshkent Tibbiyot instituti rektori qilib taniqli olim, tibbiyot fanlari doktori, patologik fiziologiya kafedrasiprofessori X.Ya. Karimov tayinlandi. Institut tarkibiga ikkita davolash va sanitar-gigiena fakul'tetlari kiritildi.

1991-yil O‘zbekiston xalqi hayotida tarixiy voqeа 31 avgustda davlat mustaqilligi haqida deklarasiya qabul qilindi. O‘zbekistonning siyosiy va ijtimoiy hayotida chuqur o‘zgarishlar boshlandi. Yosh mustaqil respublikada sog‘liqni saqlashning yangi milliy modelini yaratishda birinchi qadamlar tashlandi. Sog‘liqni saqlashda ekstensiv rivojlanish usulidan, aholiga tibbiy yordamning sifatini oshirish va intensifikasiyalashga asoslangan intensiv rivojlanishga o‘tildi. Har ikkita institut ham Markaziy Osiyoda etakchi ilmiy va o‘quv markaziga aylandi.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytish o‘rinligi, sovet davrida tibbiyot mutaxassislarni tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari faoliyati qoniqarsiz tashkil etilganini ko‘rishimiz mumkin. Kadrlar tayyorlash tizimining orqada qolganligi, zamon talablariga javob bermaganligi o‘quv jarayonining moddiy-texnika va uslubiy bazasining yetarli darajada ta’milamaganligi, o‘quv uslubiy, ilmiy adabiyotlarning tanqisligi, ta’lim tizimi va davolash muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining to‘liq o‘rnatilmaganligi, o‘quv dasturining nafaqat 20 foizini amaliyotga ajratilganligi o‘quv dasturlari ko‘proq shifokor tayyorlashga emas, balki sovet kishisini shakllantirishga qaratilganligi, paxta yakkahokimligi ta’limi sifatida jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatgani davolash ishlarida bir qator uammolarni yuzaga keltirgan. Tibbiyot — bemorlarni davolash, kasalliklarni oldini olish va inson jamiyatda



sog‘lom hamda ishlash qobiliyatini saqlagan holda uzoq umr ko‘rishga erishadigan amaliy faoliyat va inson salomatligini saqlash, mustahkamlash bo‘yicha ilmiy bilimlar tizimini tashkil qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarov R.M. Ikkinci jahon urushi yillarida ozbek milliy matbuotida tibbiyot masalasi. NamDu nashri, 2008.
2. Rustamova.X.E, Stojarova.N.K, Abdurashidova.Sh.A, Nurmamatova.O.Ch, Tibbiyot tarixi, Sharq nashriyoti, 2020.
3. Usmonov.Q, Sodiqov.M. O‘zbekiston tarixi (1917-1991)yy. Sharq nashriyoti, 2008.
4. Боймурадов Ш.А., Ҳамраев А.А., Тиббиёт таълимида педагогика: Ўқув кўлланма. –Т.: 2014.
5. Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917-1991). -Т.: Янги нашр, 2015.
6. Махсумов М.Ж. История развития медицинской науки в Узбекистане. “Молодой учёный” № 6 (110) – Март, 2016.
7. Искандарова Ш.Т. Тиббиёт тарихи фани бўйича ўқув кўлланма (педиатрия, тиббий-педагогика факултети талабалари учун). -Т.: 2012.
8. Рустамова X.E. ва бошқалар. Тиббиёт тарихи. Дарслик. –Т.: 2014.

### Internet saytlari:

1. <https://library.ziyonet.uz>
2. <https://ru.wikipedia.org>
3. <https://www.arxiv.uz>